

## MUSIQA O'QITISH METODIKASI NAZARIYASI VA MAKTAB REPERTUARINING MAQSAD VA VAZIFAIARI

**Qazaqova Shoiraxon Axmadbek qizi**

*Namangan davlat pedagogika instituti magistranti*

**Annotatsiya:** *ushbu maqolada musiqa o'qitish metodikasi, nazariyasi va maktab repertuari fanining pedagogik fan sifatidagi ahamiyati, musiqa o'qitish metodikasi, nazariyasi va maktab repertuari fanini kelib chiqish tarixi, musiqa o'qitish metodikasi, nazariyasi va maktab repertuari kursini asosiy maqsad va vazifaiari hamda musiqa o'qitish metodikasi, nazariyasi va maktab repertuari fanini boshqa fanlar bilan aloqasi haqida ma'lumotlar keltirilgan.*

**Kalit so'zlar:** *ohangdoshlik, cholg'uchi, musiqachi, sozand, cholg'u asboblada ijro etuvchi, prinsip, tamoyil, musiqa nazariyasi, musiqiy asar tahlili.*

**Аннотация:** *в данной статье рассмотрено значение методики преподавания музыки, теории и школьного репертуарного дела как педагогической науки, история зарождения методики преподавания музыки, теории и школьного репертуарного дела, основные цели и задачи методики преподавания музыки, курс теории и школьного репертуара, а также сведения о методике преподавания музыки, теории и связи школьного репертуара с другими предметами.*

**Ключевые слова:** *мелодия, инструменталист, музыкант, музыкант, исполнитель на инструменте, принцип, принцип, теория музыки, анализ музыкального произведения.*

**Abstract:** *in this article, the importance of music teaching methodology, theory and school repertoire science as a pedagogical science, the history of the origin of music teaching methodology, theory and school repertoire science, the main goals and objectives of the music teaching methodology, theory and school repertoire course and information about music teaching methodology, theory and connection of school repertoire with other subjects.*

**Key words:** *melody, instrumentalist, musician, musician, instrument performer, principle, principle, music theory, musical piece analysis.*

Musiqa o'qitish metodikasi, pedagogika fani sifatida tajribada sinalgan ishlami nazariy qismlarini umulashtirib, amaliyotda samarali natijalar bergan o'qitish metodlarini takdim etadi. Metodika asosan, pedagogika, psixologiya, estetika va san'atshunoslikning tadqiqot natijalariga asoslanadi. U, musiqa o'qitishning qonun - qoidalarini ta'riflab beradi, kelajak yosh avlodni tarbiyalashda qo'llanadigan zamonaviy metodlarni belgilaydi. Metodika, ta'lim - tarbiva jarayonida o'qituvchining o'quvchilar bilan ishlash usullarining, mazmunini anglatadi. Musiqa o'qitish metodikasi o'qituvchidan iste'dod, qobiliyatlar va ishtiyoqlar mavjud bo'lishini talab etadi, chunki, san'at pedagogikasi mashakqatli va juda mas'uliyatli sohadir, Xozirgi kunda musiqa o'qitish metodikasi birdaniga kelib shakllangan fan emas, balki bunta qadar mazkur fanni shakllanishi ijodiy va murakkab tarakkiyot yulini bosib

o'tgan. Respublikamizda musiqa o'qitish metodikasini shakllantirishda maxaliy olimlar, metodistlar, tajribali o'qituvchilarning qator izlanishlari, o'quv qo'llanmalarini ahamiyati katta bo'ladi. Badiiy pedagogikaning metodika sohasidagi sunggi yutuqlari talabalarni pedagogika faoliga tayyorlash, ularni metodik bilim va maqoratlarni bilan qurollantirish, musiqa o'qitish metodikasini bu maqsadga erishish uchun amaliy mashg'ulotlar mobaynida uzoq ijtimoiy mehnat qilish talab etiladi. Ma'lumki, maktabda o'quvchilarning yosh fiziologik xususiyatlarini, kunlik va malakalariga qarab, musiqa o'qitish metodikasi qo'llaniladi. Bu yerda ta'lim usuli, o'quv materiallarining (Uquv reja, dastur) ta'lim printsiplari, o'quv - tarbiyaviy ishlarining umumiy maqsad va vazifalari muhim ahamiyatga egadir. Demak musiqa o'qitish metodikasi, o'quvchilarning musiqa san'atiga o'rgatishning mazmuni, vazifalari va metodlarini o'rgatuvchi va o'quv jarayonlarini tashkil etuvchi shakl va yullarini tadbik etuvchi fandır, «Metodika» so'zi grekcha so'z bo'lib, «tadqiqot yo'li», «bilish usuli» degan ma'noni anglatadi va ta'lim - tarbiyaning alohida qismlari bo'lib hisoblanadi, ularning yig'indisi musiqa o'quv metodlari deyiladi. Musiqaning o'qitish metodlari deganda, maktab o'quvchilarning bilim, maxorat va malakalarini egallashda, ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda va dunyoqarashini tarkib toptirishda o'qituvchilarning qo'Hagan ish usullari tushuniladi. Musiqa o'qitish metodikasi vazifalarini amalga oshirishda, musiqa o'qitishning qator metodlari bilan birgalikda, pedagogikaning amaliy yunalishini xususiy (optimal) metodlar egallab, musiqa darsida qo'lash muhim ahamiyat kasb etadi. Musiqa o'qitish metodikasi vazifalarini amalga oshirishda musiqa darsida o'qitishning (optimal) xususiy metodlaridan unumli foydalanishga bog'liq. Yetuk olimlarimizning tadqiqotlarida maktab o'qituvchisining shaxsiyati va unga bo'lgan professional talablar va o'quvchilar munosabatini, xususiy metodlardan foydalanish jarayonida xal qilish lozimligini ilmiy asosda ta'riflab berganlar. Xususiy metod - biror bir fanning amaliy va ijodiy ishlarini mazmunini va mavzusini keng yoritib berish va mustaxkamlashda, o'qituvchi va o'quvchi faoliyatida o'zaro aloqadorligini va o'quvchilarni bilish jarayonida izlanishda undovchi metoddir.

Mustaqilligimizning poydevorini mustahkamlashda O'zbekistonning buyuk davlatga aylanishida ta'lim-tarbiya ishlarini to'g'ri yo'lga qo'yilishi dolzarb vazifalardan biri bo'lib hisoblanadi. Chunki ilm-fan, madaniyat va ma'naviyat har qanday mamlakat va xalqni yuksaklikka ko'taradi, uning taraqqiyotini ta'minlaydi, kelajagini oldindan ko'rsatib beradi.

“Musiqa o'qitish metodikasi, nazariyasi va maktab repertuari” fani pedagogika fani sifatida, tajribada sinalgan ishlarini barcha qismlarini umumlashtirib, amaliyotda samarali natijalar bergan musiqa o'qitish metodlarini taqdim etadi. Metodika asosan, pedagogika, psixologiya, estetika va san'atshunoslikning tadqiqot natijalariga asoslanadi. U musiqa o'qitishning qonun-qoidalarini ta'riflab, kelajakda yosh avlodga ta'lim-tarbiya berishda qo'llanadigan zamonaviy texnologiyalar va metodlarni belgilab beradi.

Metodika fani, ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchining o'quvchilarni bilan ishlash uslublari mazmunini anglatadi. “Musiqa o'qitish metodikasi, nazariyasi va maktab repertuari” fani birdaniga shakllangan fan emas, balki o'z tarixiy, taraqqiyot yo'liga ega bo'lgan fan. O'zbekistonda, metodika fani shakllanishiga buyuk mutafakkirlar, olimlar, ilg'or tajribali o'qituvchilar, metodistlar, mahalliy olimlarning tadqiqot ishlari, izlanishlari,

tajriba-sinov ishlari, risolalari, fikrlari, o'quv dasturlari va darsliklarini yaratib o'z hissalarini qo'shganlar.

“Musiqqa o'qitish metodikasi, nazariyasi va maktab repertuari” kursining fan sifatida maqsadi talabalarni bo'lajak musiqqa o'qituvchisi amaliy faoliyatiga tayyorlash, ularni metodik bilim va mahorat bilan qurollantirish. Bu maqsadga erishish uchun amaliy mashg'ulotlar mobaynida uzoq ijodiy mehnat talab etiladi. Ma'lumki maktabda o'quvchilarning yosh psixologik fiziologik xususiyatlariga qarab, musiqqa o'qitish nazariyasi va metodikasi qo'llanadi. Bu yerda ta'lim usuli, o'quv materiallarining (o'quv reja, dastur) ta'lim tamoyillari, o'quv tarbiyaviy ishlarning maqsad va vazifalari muhim ahamiyat kasb etadi.

“Metodika” so'zi grekcha so'z bo'lib, “tadqiqot yo'li”, “bilish usuli” degan ma'noni anglatadi. Musiqqa o'qitish metodlari deganda, maktab o'quvchilarining bilim, ko'nikma va malakalarini tarkib toptirishda qo'llagan ish usullari tushiniladi. “Musiqqa o'qitish metodikasi va maktab repertuari” kursining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- ta'lim tizimida shaxs madaniyati to'g'risida tasavvurga ega bo'lish;
- ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlar, zamonaviy o'qituvchiga qo'yilayotgan talablarni o'rganish;
- dars ishlanmalarini tayyorlashda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish;
- metodik ishlanmalar, ko'rgazmali qurollar, tarqatma materiallar tayyorlash, kompyuter, slayd, disklar, magnit tasmlardan foydalana bilish,
- har bir sinfni yoshiga mos ravishda musiqqa o'qitish metodlari va usullarini tanlab qo'llash;
- kelajak avlodning musiqiy madaniyati va ma'naviyatini musiqqa vositasi orqali shakllantirish;
- sinfdan va maktabdan tashqari musiqiy tarbiyani shakllantirish va uni tashkil etish usullarini o'rganish;
- pedagogik amaliyotda tajriba sinov ishlarini o'tkazish;
- taniqli kompozitor, shoirlar, ijodkorlar bilan uchrashuvlar o'tkazish, tanlovlarda ishtirok etib, o'quvchilarni nafosat tarbiyasini shakllantirish;
- xorijiy mamlakatlar ta'lim tizimini o'rganish;
- o'qituvchi va talaba o'rtasida hamkorlik faoliyatini tashkil etish;
- berilgan topshiriqlarni o'z vaqtida bajarib, amaliy mashg'ulotlar, seminarlarga puxta tayyorlanish;
- tavsiya etilgan adabiyotlar bilan mustaqil ishlash;
- talabalarni mustaqil fikrlash, izlanish, tahlil qilish, xulosa chiqarishga o'rgatish;
- talabalarni mustaqil ish jarayonida ijodiy faolligini oshirish;
- amaliy mashg'ulotlar ma'ruzalarni mantiqiy davomi bo'lib, talabalar ma'ruzalari kursida o'zlashtirgan bilimlarini mustahkamlashga o'rgatish.

“Musiqqa o'qitish metodikasi, nazariyasi va maktab repertuari” fani umumkasbiy fan hisoblanib, pedagogika, psixologiya, maktab repertuari praktikumi, nutq madaniyati, musiqqa tarixi, yakka kuylash, dirijoriik, musiqqa asbobi, solfedjio, xor musiqqa nazariyasi, bolalar adabiyoti, pedagogik mahorat, ona tilli adabiyot, tabiat kabi fanlar bilan chambarchas

bog‘liq. Ushbu musiqiy nazariy fanlar, bo‘lajak, o‘qituvchilarga musiqa san‘atini bolalarga samarali yetkazish yo‘llarini, ularga hayotning musiqiy obrazlarda aks etishini va musiqa ifoda vositalarini amalda qo‘llashga yordam beradi. Bu fanlar bir biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, o‘quvchilarni ma‘naviy-axloqiy tarbiyasini shakllanishiga, musiqiy fani amir puxta egallashiga ko‘mak beradi. Bu esa bo‘lajak o‘qituvchilarni, musiqiy san‘at sirlarini o‘quvchilarga samarali yetkazish yo‘llarini o‘rgatadi.

Xalqimiz kelajagi mustaqil O‘zbekistonning istiqboli ko‘p jihatdan o‘qituvchiga uning dunyoqarashiga, tayyorgarligi, fidoyiligiga, yosh avlodni o‘qitish va tarbiyalash ishiga bo‘lgan munosabatiga bog‘liq. Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini kuchaytirish, ixtisoslarga doir fanlarni o‘qitish va pedagogik mahoratni egallash, nazariy bilim larni amaliyotda qo‘llashga o‘rgatish bugungi kun talabidir. Uzlaksiz pedagogik ta‘lim tizimini amalga oshirilishi munosabati bilan o‘qituvchilarni malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash ishlari diqqat markazidadir. o‘qituvchilik kasbi sharaflidir, lekin juda murakkab kasbdir, o‘qituvchi musiqa nazariyasini egallashi bilan birga, bolalarni sevishi, pedagogik amaliyotni ham o‘tgan bo‘lishi kerak. Chunki, maktab hayotidagi pedagogik jarayon juda xilma-xildir. Bu esa musiqa o‘qituvchisidan puxta bilim, amaliy tayyorgarlikni, yuksak pedagogik mahorat va ijodkorlikni talab etadi.

Xulosa o‘rnida takidlash joizki, dars, musiqa tarbiyasi tizimida, yetakchi omil hisoblanadi. Chunki, bolalar yalpitarzda qamrab olinadi. Musiqa bolalarni aqliy hamda axloqiy rivojlanishida katta ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Shuning uchun musiqa darslari eng avvalo, tarbiya darsi deyiladi. Fanning nomi faqatgina musiqa o‘qitish metodikasi emas, balki musiqa tarbiyasi metodikasi deyiladi. Yangi dastur mazmunida dars o‘tish uchun musiqa o‘qituvchisi o‘zining musiqiy va nazariy bilimlarini takomillashtirishi lozim. Bugungi kunda musiqa insonni shakllanishida muhim rol o‘ynaydi, uning hissiyoti va ruxiyatiga faol ta‘sir ko‘rsatadi. Umumtan maktablarning asosiy vazifalaridan biri, o‘quvchilarni nafosat olamiga olib kirish va ma‘naviy tarbiya berish. Bunda o‘qituvchi bolalarni ma‘lum bir musiqa asari bilan tanishtirib, uni ifodali, «jonli» qilib ijro etib, o‘quvchilar diqqat e‘tiborini asarga jalb etadi, ularning nutqini ustirish, fikrlash qobiliyatini, dunyoqarashini kengaytiradi, e‘lyutsional his - tuyg‘ularga ham faol ta‘sir etadi. Musiqa darslarining mazmunida faqatgina o‘zlashtirishni emas, balki o‘quvchilar ongini voqelikka munosabatini rivojlantirish, estetik madoniyatini tarkib toptirish va boshqa ichki his - tuyg‘ularini shakllantirish nazarda tutiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Kamolov Tursunboy, “Musiqa o‘qitish metodikasi tarixi”, T-2005.
2. Ikromov Xasanboy, “Zamonaviy musiqa o‘rgatish metodikasi”, T-2012